



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Kushanova Mashxura Isakovna

*Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti
maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

IJTIMOYIY INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH – O'SMIRLARDA AGRESSIV XULQ-ATVORNI PASAYTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMI SIFATIDA

Annotasiya. Mazkur maqolada o'smirlar orasida uchraydigan agressiv xulq-atvorning psixologik omillari hamda uni kamaytirishda ijtimoiy intellektning o'rni tahlil qilingan. Ijtimoiy intellektning nazariy asoslari, tarkibiy komponentlari va rivojlanish omillari ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, o'smirlarning ijtimoiy-emotsional kompetentligini rivojlantirish orqali agressiv reaksiyalarni konstruktiv yo'nalishga o'tkazish mexanizmlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari tahlili asosida ijtimoiy intellektni rivojlantirish shaxsning o'zini boshqarish, empatiya va kommunikativ madaniyatini kuchaytirishi, natijada agressiv xulq-atvorni bartaraf etishda samarali psixologik omil sifatida namoyon bo'lishi aniqlangan. Shu bilan birga, o'smirlar agressiv xulq-atvorini pasaytirishga yo'naltirilgan modelni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy intellekt, agressiv xulq-atvor, psixologik mexanizm, o'smirlik davri, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, empatiya, kommunikativ kompetensiya, shaxsiy moslashuv.

DEVELOPMENT OF SOCIAL INTELLIGENCE AS A PSYCHOLOGICAL MECHANISM FOR REDUCING AGGRESSIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS

Abstract. This article analyzes the psychological factors of aggressive behavior among adolescents and the role of social intelligence in its decline. The theoretical foundations, structural components, and factors of social intelligence development are

illuminated based on scientific sources. The mechanisms for translating aggressive reactions into a constructive direction through the development of adolescents' socio-emotional competence are also revealed. Based on the analysis of the research results, it was established that the development of social intelligence strengthens self-control, empathy, and communicative culture of the individual, as a result of which it manifests itself as an effective psychological factor in overcoming aggressive behavior. At the same time, scientifically substantiated proposals and recommendations for improving the model aimed at reducing the aggressive behavior of adolescents are presented.

Keywords: social intelligence, aggressive behavior, psychological mechanism, adolescence, socio-emotional development, empathy, communicative competence, personal adaptation.

РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ СНИЖЕНИЯ АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. В данной статье анализируются психологические факторы агрессивного поведения среди подростков и роль социального интеллекта в его снижении. Теоретические основы, структурные компоненты и факторы развития социального интеллекта освещены на основе научных источников. Также раскрыты механизмы перевода агрессивных реакций в конструктивное направление через развитие социально-эмоциональной компетентности подростков. На основе анализа результатов исследования установлено, что развитие социального интеллекта усиливает самоконтроль, эмпатию и коммуникативную культуру личности, в результате чего проявляется как эффективный психологический фактор в преодолении агрессивного поведения. При этом представлены научно обоснованные предложения и рекомендации по совершенствованию модели, направленной на снижение агрессивного поведения подростков.

Ключевые слова: социальный интеллект, агрессивное поведение, психологический механизм, подростковый возраст, социально-эмоциональное развитие, эмпатия, коммуникативная компетентность, личностная адаптация.

Kirish. Respublikamizda so‘nggi yillarda yoshlarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yordam berish hamda axloqiy ko‘nikmalar shakllantirilishining psixologik mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlari aniqlanib, zaruriy huquqiy-me‘yoriy asoslar yaratildi: «Yoshlarimiz ongiga salbiy ta’sir etuvchi, ularni g‘oyaviy jihatdan qaram etishga yo‘naltirilgan harakatlarga qarshi samarali kurash olib borish, irodali, fidoyi, vatanparvar va o‘z mustaqil fikriga ega avlodni tarbiyalash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish» [1], «.....ularni

vatanparvarlik, fuqarolik tuygʻusi, bagʻrikenglik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli taʼsirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga boʻlgan qatʼiy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash» [2] vazifalari belgilangan. Shu boisdan, mazkur mavzuni tadqiq etish nafaqat ilmiy-nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim boʻlib, oʻsmirlarning jamiyatda oʻz oʻrnini topishiga yordam berishi bilan muhim masalalardan hisoblanadi. Taʼkidlash joizki, oʻsmirlarning agressiv xulq-atvorini pasaytirish ijtimoiy intellektni rivojlantirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Zero, ijtimoiy intellekt, bu shaxsning boshqalar bilan muloqotda boʻlish, ularning hissiyotlarini tushunish, ijtimoiy normalarga moslashish hamda ziddiyatlarni konstruktiv yoʻl bilan hal etish qobiliyatidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy intellekt tushunchasi jahon psixologiyasida XX asrning boshlaridan boshlab faol oʻrganilgan boʻlib, ushbu tushunchani 1920-yilda E.Torndayk ilmiy doirada taqdim etib, uni intellektual qobiliyatlarning bir turi sifatida tasvirlagan. Uning fikricha, ijtimoiy intellektning asosiy funksiyasi odamlarni tushunish va ularga mos ravishda harakat qilishdan iborat [3].

G.Ayzenk ishlarida ijtimoiy intellektning oʻziga xosligi uning boshqa intellektual qobiliyatlar bilan oʻxshashligi, ammo alohida rivojlanishi bilan ajralib turadi. U ijtimoiy intellektni insonning jamiyatdagi oʻzaro munosabatlarini tushunish va boshqarish qobiliyati sifatida taʼriflaydi. Bunday intellekt shakllanishi insonning ijtimoiylashuvi jarayonida, yaʼni ijtimoiy va madaniy muhit taʼsirida yuzaga keladi. Ayzenkning fikricha, ijtimoiy intellekt insonning psixologik va kognitiv qobiliyatlari jamiyatning ijtimoiy normalariga mos ravishda rivojlanadi. Bu jarayon ijtimoiy oʻzaro aloqalarda muvaffaqiyatli boʻlishni taʼminlaydi, masalan, konfliktlarni hal qilish, boshqalarning hissiyotlarini tushunish va muammolarni samarali yechish kabi koʻnikmalarni rivojlantiradi. Ushbu nuqtai nazar ijtimoiy intellektni, faqat odamlar oʻrtasidagi aloqalarni boshqarish qobiliyatidan tashqari, ijtimoiy muhitga moslashish va unga javob berishda ham yordam beruvchi qobiliyat deb biladi [4].

Umuman olganda turli davrda xorij va rus olimlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, aqlli odamni tavsiflashda ikki asosiy tarkibiy qism mavjud: predmetli (muammoli) intellekt va ijtimoiy intellekt. Ijtimoiy intellektning umumiy xususiyati shundan iboratki, u insonlarga oʻzaro munosabatlarda amaliy masalalarni hal qilish qobiliyatini beradi. Yaʼni, shaxslararo muloqot va munosabatlarda insonning boshqalar bilan samamiy, tushunarli va hamkorlikka asoslangan aloqalar oʻrnatish imkoniyatini yaratadi. Ijtimoiy intellekt, asosan, boshqalarni tushunish, ularning his-tuygʻularini anglash va muammoli vaziyatlarda mos yechimlarni topa olish koʻnikmalariga tayanadi [5].

Koʻplab mualliflar oʻz ishlarida, mazmuni jihatdan ijtimoiy intellektga teng boʻlgan tushunchalarni ishlatishadi. Ulardan baʼzilari ijtimoiy intellektni kognitiv qobiliyat sifatida tushunadilar, bu esa ijtimoiy sohani oʻrganishning bilim sohasi sifatida qaraladi. L.I.Umanskiy ijtimoiy intellektni insonning shaxsiy va ijtimoiy hayotida amaliy qobiliyat sifatida tushuntirib, ijtimoiy intellektni faqat nazariy yondashuvlar orqali toʻliq izohlab boʻlmaydigan, amaliyotda aniq namoyon boʻladigan psixologik aql sifatida koʻradi. Uningcha, ijtimoiy intellekt – bu odamlarning kundalik hayotida turli ijtimoiy vaziyatlarda muvaffaqiyatli muloqot qilish va muammolarni hal qilishda yordam beradigan koʻnikma

va amaliy qobiliyatlar yig'indisidir. Bu qobiliyat insonning nazariy bilimlariga emas, balki uning real hayotiy tajribasiga hamda muloqotda qanday harakat qilishiga asoslanadi [6].

Mazkur izlanishlar ijtimoiy intellektning turli nazariyalarini rivojlantirishda va ularning amaliy ahamiyatini aniqlashda katta rol o'ynaydi.

M.I.Bobneva shaxsning ijtimoiy rivojlanish kontekstida ijtimoiy intellektni o'rganishni ilgari surdi. Uning fikricha, shaxsning ijtimoiy-psixologik maqomi uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari majmuini o'z ichiga oladi. Mazkur xususiyatlar shaxsning ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ulardan foydalanishni ta'minlaydi.

Ijtimoiy intellekt shaxsning ijtimoiy faoliyatlarini shakllantirishga yordam beradigan muhim omillardan biri bo'lib, uning boshqa ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, ya'ni ijtimoiy persepsiya, empatiya va ijtimoiy tasavvur bilan birga ishlashini belgilaydi. Ushbu yondashuv shaxsning ijtimoiy rivojlanishini ijtimoiy kontekstda tahlil qilishga yordam beradi hamda ijtimoiy intellektning o'zni va ahamiyatiga alohida e'tibor qaratadi [7].

M.I.Bobnevaning modeli ijtimoiy intellektning shaxsning ijtimoiy faoliyati va psixologiyasining shaxsiy jihatlarini integratsiya qilgan holda uning ijtimoiy rivojlanishidagi ahamiyatini yanada tushunishga yordam beradi.

G.Gardner o'zining «Intellektning ko'pqirraliligi» nazariyasida ijtimoiy intellektning ikki asosiy turini – shaxsga oid va shaxslararo intellektlarni ajratadi. Ularning har ikkala turi ham ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Shaxsga oid intellekt – insonning o'z ichki dunyosiga nazar tashlash, o'zini anglash va shaxsning emotsional va psixologik holatlarini tushunish qobiliyatini anglatadi. Ushbu intellekt insonning o'zi bilan munosabatini shakllantirishda va o'z qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. O'z imkoniyatlarini, ehtiyojlarini va orzularini tushunish shaxsning ichki hayotini muvozanatda saqlashga yordam beradi.

Shaxslararo intellekt – boshqa insonlarning shaxsiy xususiyatlarini tushunish, ular bilan samarali muloqot qila olish va ular orasida farqlarni sezish qobiliyati. Mazkur intellekt turi boshqalar bilan ijtimoiy munosabatlarni qurish va ijtimoiy statusini, ijtimoiy rolini va o'zaro munosabatlardagi samaradorligini belgilaydi [8].

G.Gardnerning nazariyasiga ko'ra, ushbu ikki turdagi intellektlar insonning umumiy qobiliyatlarini to'liq tushunishga yordam beradi, chunki ular shaxsning ijtimoiy va ichki dunyosi orasidagi aloqani ko'rsatib, rivojlanish va moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

A.I.Savenkovning ijtimoiy intellektga oid tadqiqotlarida ijtimoiy intellektning shakllanishida muhim bo'lgan ikki asosiy omil ajratilgan:

«Kristallashgan ijtimoiy bilimlar» – bu ijtimoiy voqealarga oid bilimlarning ikki asosiy turi:

deklarativ bilimlar – bu ijtimoiy o'rganish jarayonida olingan bilimlar bo'lib, odamlar tomonidan o'rgatish va o'rganish orqali shakllanadi.

tajribaviy bilimlar – shaxsning o'z hayot tajribasi orqali olingan bilimlar. Bu bilimlar insonning shaxsiy munosabatlar, ijtimoiy vaziyatlardagi harakatlaridan kelib chiqadi.

Ijtimoiy-kognitiv moslashuvchanlik – bu komponent shaxsning ijtimoiy bilimlarni yangi muammolarni hal qilishda ishlatish qobiliyatini ko'rsatadi. Ya'ni, ijtimoiy


vaziyatlarda qaysi bilimlar va ko'nikmalar muhimligini aniqlash va ularni samarali qo'llash qobiliyati.

A.I.Savenkov ijtimoiy intellektni uchta asosiy mezonga bo'ladi:

Kognitiv: ijtimoiy vaziyatlardagi ma'lumotlarni aniq tushunish va ularni qayta ishlash qobiliyati. Emotsional: boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va ularga javob berish qobiliyati. Xulq-atvor: ijtimoiy vaziyatlarda to'g'ri xulq-atvorni ko'rsatish, ya'ni ijtimoiy munosabatlar va holatlarga moslashish qobiliyati [9].

Mazkur modellar ijtimoiy intellektning ko'p qirrali va murakkab xususiyatlarini tushunishga yordam beradi, bu esa insonning ijtimoiy munosabatlar va holatlarda qanday faoliyat ko'rsatishini yaxshiroq tushunishga imkoniyat yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Har bir ijtimoiy intellekt modeli, uning turli jihatlari va tarkibiy qismlarini tavsiflashga qaratilgan bo'lsa-da, ularning umumiy yo'nalishi ijtimoiy bilimlarni, xulq-atvorlarni va odamlar bilan samarali aloqalar o'rnatish qobiliyatini tushuntirishga asoslanadi. Ijtimoiy intellektning har bir komponenti alohida vazifalarni bajaradi va ijtimoiy o'zaro munosabatlardagi muvaffaqiyatga ta'sir qiladi. Masalan, ba'zi modellarda kognitiv aspektlar (ijtimoiy bilimlar), ba'zi modellarda esa emotsional va ijtimoiy xulq-atvor (boshqalarni tushunish va ularni boshqarish) muhim o'rin tutadi. Amalga oshirilgan ilmiy izlanishning nazariy va amaliy natijalariga tayangan holda o'smirlarda agressiv xulq-atvorni korrektsiyalashga yo'naltirilgan modeli ishlab chiqilib (1-rasmga qarang), uni tayyorlashda psixolog-olimlar E.Torndayk, G.Ayzenk, N.L.Smirnova, L.I.Umanskiy, P.E.Vernon, J.Gilford va M.Xendriks, U.Mishel, M.I. Bobneva, G.Gardner, A.L.Yujaninova, K.Kosmitski va O.Jon, A.I. Savenkovlarning ilmiy tadqiqotlarining nazariy va amaliy natijalaridan foydalanildi.



agressivlikni korreksiyalash ijtimoiy (shaxslararo) intellekt darajasini rivojlantirish orqali kognitiv (jamiyat normalarni tushunish va ularga rioya qilish), emotsional (emotsional o'zini boshqarish mexanizmlari) va konativ (o'zgalar bilan ijobiy munosabatlarga kirishish) mexanizmlarini singdirishga harakat qilindi.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan o'smirlarda agressiv xulq-atvorni korreksiyalash modeli o'z ichiga 2 ta bosqichni qamrab oldi. Ular 1-bosqich konseptual va diagnostik, 2-bosqich nazorat va baholash bosqichlar deb nomlandi va ular ham o'z ichiga nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadigan uzluksiz tuzilmadan iborat bo'ldi.

«O'smirlarda agressiv xulq-atvorni korreksiyalash modeli» o'smirlarning agressiv xulq-atvorini kamaytirish va ularga ijtimoiy-psixologik moslashuv imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan bo'lib, quyidagi bosqichlardan iborat.

I BOSQICH: KONSEPTUAL VA DIAGNOSTIK BOSQICH

Ijtimoiy intellekt: Boshqa odamlar bilan til topishish, o'zgalard oldida o'zini qulay va erkin tutishga imkon beradigan ijtimoiy usullar majmuasiga ega bo'lish, ijtimoiy masalalar va muammolarni tushunish, ijtimoiy guruhning boshqa a'zolari, shuningdek, begonalarning kayfiyatini, ularning shaxsiy xususiyatlarini tushunish qobiliyatini shakllantirish.

Kognitiv komponent – o'smirlarning o'z muammolarini anglash, o'z ruhiy holatini optimallashtirish imkonini beruvchi sog'lom fikrlashni o'rganishiga ko'maklashish.

Emotsional komponent – o'smirlarning o'z his-tuyg'usini boshqarish, o'zi va o'zgalarning his-tuyg'ulari bilan hisoblashish, o'z muammolariga tegishli bo'lgan kechinmalarni tushunish va ifodalay olish, turg'un emotsional holatni rivojlantirish, salbiy emotsional holatlarni yengib o'tish ko'nikmalarini egallashlariga yordam berish.

Konativ komponent – o'smirlarning o'z-o'zini boshqarish, o'z xulq-atvoriga ongli ravishda tas'ir o'tkazish, o'z xatti-harakatlarini qo'llab-quvvatlash yoki o'zgartirishga yordam berish.

I. Diagnostika

Maqsad: O'smirlarda agressiv xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi sabablarni va shu holatning psixologik, ijtimoiy xususiyatlarini aniqlash.

Jarayon:

So'rovnoma va testlar: O'smirlarda agressiv xulq-atvorni baholash uchun psixologik test va so'rovnomalarni (agressiv xulq-atvor shkalalari, ijtimoiy munosabatlarni o'lchash testlari) qo'llash.

Kuzatish: O'smirlarning kundalik hayotidagi xatti-harakatlarini o'rganish, ularning maktab, oila va tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarini kuzatish.

Intervyu: O'smir va uning oilasi bilan chuqurlashtirilgan suhbatlar o'tkazish, ularning psixologik va ijtimoiy holati haqida ma'lumot olish.

II. Maqsad qo'yish varejalashtirish

Maqsad: Agressiv xulq-atvorni kamaytirish uchun aniq maqsadlar qo'yish va individual korreksiya rejasini tuzish.

Jarayon:

Individual reja tuzish: Har bir o'smir uchun xulq-atvori, shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlariga mos ravishda individual rivojlanish rejasini ishlab chiqish.

Korreksion maqsadlar: Har bir o'smir uchun ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zini o'zi boshqarish qobiliyatini oshirish, muammolarni agressiyasiz hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadlar belgilash.

III. Psixologik korreksiya

Maqsad: O'smirlarda agressiv xulq-atvorni kamaytirish va konstruktiv xulq-atvor ko'nikmalarini rivojlantirish.

Jarayon:

Psixoterapiya:

Kognitiv-bixevioral terapiya (KBT): O'smirlarning agressiv fikrlash tarzini o'zgartirish, his-tuyg'ularini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Ruhiy-hissiy tahlil: O'smirlarning o'z agressiyasini anglash va his-tuyg'ularini konstruktiv ravishda ifodalash imkoniyatini berish.

O‘zini o‘zi boshqarish treninglari: O‘smirlarni stress, g‘azab yoki boshqa kuchli hissiy holatlarda o‘z xulq-atvorini nazorat qilishga o‘rgatish.

Treninglar:

Ijtimoiy ko‘nikmalar treningi: Konfliktlarni agressiyasiz hal qilish, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun treninglar o‘tkazish.

Emotsional intellektni rivojlantirish treninglari: O‘smirlarga o‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri tushunish va boshqalar bilan hissiy aloqa o‘rnatishni o‘rgatish.

Guruh terapiyasi:

Guruh ichida o‘zaro ishonch, ijobiy munosabatlar va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash muhitini yaratish. O‘smirlar bir-biri bilan tajriba almashib, agressiyani boshqarish bo‘yicha konstruktiv fikrlash usullarini o‘rganadi.

IV. Psixologik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash

Maqsad: Maktab va ijtimoiy muhitda o‘smirni qo‘llab-quvvatlash, ijobiy xulq-atvorni mustahkamlash.

Jarayon:

Pedagoglar bilan hamkorlik: O‘qituvchilar va psixologlar bilan birgalikda ishlash orqali o‘smirlarda agressiv xulq-atvorning oldini olish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqish.

Ijtimoiy ishchilar bilan ishlash: Ijtimoiy himoya tizimi vakillari bilan hamkorlikda o‘smirga ijtimoiy muhitda yordam berish, ularning ijtimoiy faoliyatlarda ishtirok etishini ta‘minlash.

II BOSQICH. NAZORAT VA BAHOLASH BOSQICHI

Maqsad: Korreksiya jarayonida erishilgan yutuqlarni baholash, agressiv xulq-atvorning qayta paydo bo‘lishini oldini olish uchun monitoring o‘tkazish.

Jarayon:

Takroriy diagnostika: Korreksiya jarayonidan keyin takroriy diagnostik testlar va kuzatuvlar o‘tkazish.

Baholash: O‘smirlarning o‘z xulq-atvoridagi o‘zgarishlarni, agressiv xatti-harakatlarni kamaytirishga erishilganligini baholash.

Davomiy yordam: Agressiv xulq-atvordan qaytgan o‘smirlar uchun davomiy psixologik qo‘llab-quvvatlash va maslahat xizmatlarini taqdim etish.

Xulosa va takliflar. Mazkur modelning samarali ishlashi o‘smirlar orasida agressiv xulq-atvorni kamaytirishga, ijtimoiy moslashuvni yaxshilashga va ularning jamiyatda to‘g‘ri munosabatlar o‘rnatishga yordam beradi. Shuningdek, bu jarayon o‘smirlarning psixologik salomatligini yaxshilash, shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy xulqni sozlashda katta ahamiyat kasb etadi. Bu metodlar ijtimoiy intellektni shakllantirish va rivojlantirish orqali o‘smirlarga o‘z hissiy holatlarini boshqarish, boshqa odamlar bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish va hayotiy qiyinchiliklarga konstruktiv ravishda yondashish imkoniyatini yaratadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

to'g'risida»gi Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040 son «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021-y., 07/21/5040/0243-son.

3. Айзенк Г. Интеллект: новый взгляд // Вопросы психологии. 1995. – № 1. – С. 111-129.

4. Практический интеллект / Роберт Дж. Стернберг, Джордж Б. Форсайт, Дженнифер Хедланд и др. – СПб.: Питер, 2002. – 265 с.

5. Смирнова Н.Л. Исследование имплицитных концепций интеллекта // Психология личности в условиях социальных изменений. М.: ИП РАН, 1993. – С. 97-103

6. Уманский Л.И. Психология организаторской деятельности школьников: учеб. пособие для студентов пед. ин-тов. М.: Просвещение, 1980. – 160 с.

7. Бобнева М.И. Психологические проблемы социального развития личности // Социальная психология личности / отв. ред. М.И. Бобнева, Е.В. Шорохова. – М.: Наука, 1979. – С. 35-63.

8. Gardner H. Frames of Mind: The theory of multiple intelligences. – New York: Basic Books, 1983. P. 459.

9. Савенков А.И. Социальный интеллект как проблема психологии одаренности и творчества // Психология: Журнал Высшей школы экономики. – 2005. – Т. 2. – № 4. – С. 94-101.